

**REPRODUKTIV SALOMATLIKNI SAQLASHDA OLIB BORILAYOTGAN
IZLANISHLAR TAHLILI.**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi, gigiyena va menejment kafedrasи assistentlari.

**Abdumuratova Zarina Shokir qizi,
Xayitova Shaxnoza Inatullayevna.**

Annotatsiya: Reproduktiv salomatlik insoniyat taraqqiyotida, umumiy salomatlikning bir qismi bo‘lib, markaziy zvenoni egallab kelmoqda. U barcha – barchaga, ham erkaklarga, ham ayollarga, vaqt o‘tib erta indin kattalar qatoriga qo‘shilajak bolalar va o‘smirlarga ham taaluqli bo‘lib, ularning butun oilaviy hayotini, uni qanday tashkil etishni, ushbu masalaga oid bo‘lgan barcha axboratlardan voqif bo‘lishni, homiladorlik va undan saqlanishning xavfsiz usullari, kontraseptiv vositalar va ulardan foydalanish, ular bilan bog‘liq masalalarda sog‘liqni saqlash tizimi xizmatidan to‘laqonli va erkin foydalanish huquqini, har bir insonning o‘z reproduktiv huquqi mavjudligini hozirgi kunda xar bir o‘smir yosh bilishi kerakligini anglatadi. Reproduktiv salomatlikning yomonlashuviga olib kelayotgan asosiy omillardan biri bu – sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaslik hisoblanadi.

Kalit so’zlar: reproduktiv salomatlik, kontrasepsiya, sog‘lom turmush tarzi, reproduktiv huquq

Tadqiqotning maqsadi: Sog‘lom avlodni shakllantirishda o‘smirlarning reproduktiv savodxonligi va tibbiy madaniyati qay darajada ekanligini aniqlash. Sohada olib borilayotgan izlanishlar va tibbiyot xodimlarining faoliyatini o‘rganish.

Tadqiqot usuli va materiallar: Respublikamiz bo‘ylab o‘tkazilgan onlayn so‘rovnoma 1500 ga yaqin faol o‘smir yoshlarimiz ishtirok etishdi. Ushbu so‘rovnoma UNISEF ning Toshkentdagи vakolatxonasining Sog‘liqni saqlash bo‘limi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan so‘rovnoma asos qilib olindi.

Kirish qismi: Reproduktiv salomatlik tushunchasi birinchi bor 1994-yil Qohirada bo‘lib o‘tgan Aholishunoslik va Taraqqiyot Xalqaro konferensiyasida tilga olingan edi. Ushbu konferensiya reproduktiv salomatlik tushunchasiga to‘laqonli ta’rif berildi. Reproduktiv salomatlik – bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog‘liq barcha masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yuqligi bo‘libgina qolmay, balki to‘liq jismoniy, aqliy, va ijtimoiy muvaffaqiyatlar xolati hamdir. Reproduktiv huquq – bu barcha er – xotin juftliklar va alohida shaxslarning bolalar soni ular orasidagi oraliq va tug‘ilish vaqtin haqida erkin hamda to‘liq ma’sulyat hissi bilan qaror qabul qilishi va buning uchun shart bo‘lgan ma’lumot va vositalarga ega bo‘lishi borasidagi asosiy huquqlarini tan olishdan iborat. Mamlakatimizda har bir fuqorolarimizning reproduktiv huquqlari qonun bilan himoyalangan. “Fuqorolarning reproduktiv salomatligini saqlash” to‘g’risidagi qonun 24 ta moddadan iborat. Respublikamizda barcha shart sharoitlar yaratilishiga qaramasdan reproduktiv tizim bilan bog‘liq muammolar ko‘p uchramoqda bunga asosiy sabab tibbiy savodxonlikning yetarli emasligi va sog‘lom turmush tarzining buzulishi asosiy sabab bo‘lib qolmoqda. Aholimizning tibbiy savodxonligini tekshirish va oshirish maqsadida onlayn so‘rovnomalar, joylarda trening tadqiqot ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Quyida biz o‘smirlar orasida o‘tqazilgan onlayn so‘rovnomaning natijalarini taxlilini ko‘ramiz.

VOLUME-1, ISSUE-6

Natijalar : O'tkazilgan onlayn so'rov nomasi 20 ta savoldan iborat bo'lib, so'rovda ishtirok etgan 1500 ga yaqin qatnashuvchining 65 % ni qizlarimiz qolgan 35% ni esa yigitlarimiz tashkil etishdi. So'rovnomadagi asosiy savollar reproduktiv tizimning o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'smirlarda kechishi, jinsiy tarbiya, reproduktiv salomatlikka salbiy tasir etuvchi omillar, reproduktiv salomatlik haqida ko'proq qayerdan, kimdan ma'lumot olishni xoxlaysiz yoki ma'lumot olgansiz kabi savollar asosida o'smirlarning reproduktiv salomatlik haqida nimalarni bilishi va bilishni istashi o'r ganildi, tibbiy saloxiyati baxolandi. Taxlilning asosiy natijalari:

1. Ishtirokchilarning $\frac{1}{4}$ qismi xech kim bilan reproduktiv salomatlik haqida suxbatlashmagan.

2. 59% ishtirokchilar reproduktiv salomatlik to'g'risida yoshlarni 14-16 yoshdan o'qitish kerak deb xisoblashadi.

3.O'smir yoshlarimiz uchun reproduktiv salomatlik haqidagi asosiy manba mifik tab o'qituvchilari ekanligi ma'lum bo'ldi. Jinsiy tarbiya, jinsiy yo'l orqali o'tadigan kasalliklar OITS/OIV infeksiyalari haqida ham dastlabki ma'lumotni mifik tab manbasidan olishi aniqlandi.

4.O'smirlarimizning 60% kontrasepsiya haqida tushunchaga ega ekanligi, kontrasepsiya haqida qayerdan ko'proq ma'lumot olishlari so'ralganda 63% ishtirokchi internet tizimi orqali deb javob berishgan.

Xulosa: Tahlil natijalariga ko'ra o'smir yoshlarimizning reproduktiv salohiyatini oshirish uchun mifik tab, litsey, texnikumlarda reproduktiv ishonch maslaxat markazini tashkil etish, psixolog bilan birgalikda trening qo'shimcha mashg'ulotlarini olib borish, anonim so'rovlardan natijasida o'smirlarni qiziqtirgan savollar, muammolarni aniqlash va to'g'ri yo'nalish berish kerak. Yoshlarimiz hozirgi kunda eng ko'p ma'lumotlarni internet tizimi orqali olishi aniqlangan, shunday ekan yoshlarimizga qaysi saytlardan foydalanishi, ma'lumot olish mumkinligi haqida xam targ'ibot ishlarini olib borish kerak chunki hozirda saytlar soni va undagi ma'lumotlar xam juda ko'p.